
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Yo'l harakati qoidalariga avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirishlar to'g'risida ma'lumot bersangiz

Javob: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 3 apreldagi № 140 sonli qarori bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmonining 15-bandiga muvofiq 2023 yil 1 apreldan boshlab Toshkent va Nukus shaharlarida hamda viloyatlar va tumanlarning markazlarida transport vositalari harakatlanishining eng yuqori tezligi soatiga 70 kilometrdan 60 kilometrgacha tushirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalarining 78-bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda

«Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyatlar va tumanlarning markazlarida, shuningdek shaharlar hududlarida transport vositalarining tezligini soatiga 60 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi».o'zgartirish kiritildi.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-08 15:01:28